

# **196-maktab o'quvchilari uchun Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universitetiga sayohat uyushtirildi.**

Shu kunlarda 196-maktab o'quvchilari universitetimizga tashrif buyurishdi. Maktab o'qituvchilari boshchiligidagi bu o'quvchilar universitetimiz binosini, undagi shart-sharoitlarni va albatta dars jarayonlarini qay tarzda olib borilishini yaqqol guvohi bo'lishdi. Bu ularda universitetimizga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqni yanada oshirdi degan umiddamiz. Ushbu sayohat mobaynida o'quvchilar o'z oldilariga kelajakda Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti talabasi bo'lish kabi maqsad qo'yishgan bo'lsa ajab emas.

Ularga oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishishda va talaba bo'lishdek sharafga ega bo'lishligida omad va zafarlar tilaymiz.

Ushbu sayohatni o'tkazishda bizga faol ko'maklashgan universitet volontyorlariga katta rahmat!